

XORAZMDA SHAHARLARNING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI
ZAMON MUAMMOLARI

Ahmedov G'.Y.,
Ro'zmetov D.R.,
Urganch davlat universiteti
Xorazm Ma'mun akademiyasi

Аннотация. В статье описаны некоторые проблемы возникновения городов Хорезма, периодического развития их жизни и повседневного развития всего. В частности, представлены социальные аспекты регионально рассредоточенного развития градостроительства.

Ключевые слова: город, урбанизация, градостроительство, посёлки городского типа.

Abstract. The article describes some problems of the emergence of the cities of Khorezm, the periodical development of their lives and the daily development of everything. In particular, the social aspects of regionally dispersed development of urban planning are presented.

Key words: city, urbanization, urban planning, urban-type settlements.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri Xorazm Amudaryoning quyi oqimida Xorazm vohasida joylashgan. Xorazm viloyati hududida er. avv. II ming yillikdayoq qadimiy Eron, Hindiston va Xitoy kabi buyuk madaniyat o'choqlari bilan bir qatorda qadimiy dehqonchilik madaniyatlari shakllangan. Xorazm hududidan neolitga oid Kaltaminor, bronzaga oid Suvyorgan, Tozabog'yop, Amirobod madaniyatlari yodgorliklari topilgan.

Viloyat hududda er. avv. II ming yillikning IV-III asrlaridan sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Er.avv. I ming yillik o'rtalarida Gerodot, Araks (Amudaryo)dan sug'orish maqsadida 360 ta kanal chiqarilganligi, 40 ta tarmog'i botqoqliklarga singib ketishi haqida yozib qoldirgan. Beruniy ma'lumotlariga ko'ra Xorazmda er. avv. 1200 yillarda ilk davlatchilik paydo bo'lgan [6]. Hozirgi qazishmalarda ushbu ma'lumot asta-sekin o'z tasdig'ini topib bormoqda. Hazorasp tumanida Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari tomonidan topilgan manbalardagi qadimiy Xorazm yozuvlari er. avv. VII asrga taaluqli ekanligi aniqlandi.

Er.avv. II ming yillik oxiri va I ming yillik birinchi choragi Xorazm vohasida istiqomat qilgan turli oriy qabilalari, turklar, sak-massagetlar va janubdan Siyovush bilan kelgan forsiylar bilan aralashib O'zbekiston hududidagi xalqlar ajdodlarining ilk umumiy etnik birligi sifatida dastlabki Xorazm elati shakllanadi [5, 6]. Ilk shaharlar, Baroqtom, Angqaqal'a, Qirqqizqal'a, Ayozaqal'a 1, Katta Guldursin, Devkesgan, Govur qal'a, Chilpiq, Pil qal'a, Ko'hnuaz, Kat shaharlari va qal'alari mil.avv. III-IV asrlarga oid. Xiva shahri ham yaqinda 2500, Hazorasp 2700 yilligini nishonladi.

Er.avv. II asrdan Xorazmga qang'arlar kirib kelishi natijasida hududda qayta turkiylashish boshlangan. Eramizning IV asrida Xorazmning turkiylashgan oq xunlar-eftalitlar davlati va VI asrda Turk hoqonligi tarkibiga kirishi ushbu jarayonni

yanada kuchaytirgan [5, 16]. Bu jarayon XIII asrgacha davom etgan. Ayniqsa, saljuqiylar sulolasi hukmronligi yillarida turkiy til Xorazmda to'la hukmron tilga aylanadi. XIV asr birinchi yarmida Xorazm aholisi butunlay turkcha gaplashgan [4]. Xorazm tili, sak, so'g'd, baqtriyaliklar tili qatori zamonaviy o'zbek tilining shakllanishida muhim o'rin tutgan [5].

V – VIII asrlarda Turk hoqonligi va Eron o'rtasida urushlar arenasiga aylangan O'rta Osiyo hududi aholi ijtimoiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda So'g'd, va Xorazmda yirik qishloq jamoalari vujudga kelgan. Qo'shni ko'chmanchi (turk, eron) qabilalarning tez-tez bo'lib turgan hujumlari mahalliy aholini ana shunday jamoalarga birlashishiga sabab bo'lgan. O'sha davrda Xorazmda mustahkam katta-kichik qo'rg'on-qal'alar qurish avj olgan. Burgutqal'a atrofida shunday qo'rg'on-qal'alarining bunga misol bo'la oladi [5].

Xorazm, Baqtriya, So'g'd kabi mamlakatlar shaharlarining ko'pchiligi bilan ajralib turganlar. Shaharlar bu mamlakatlarning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Kat (Al-Fir, Fil qal'a) Xorazmdagi yirik shahar manzilgohlari bo'lishgan. Kat shahri haqida Beruniy shunday deb yozadi: «Qal'aning uchta devori paxsadan va xom g'ishtdan qurilgan. Bularning biri ikkinchisi ichiga joylashgan, har birining balandligi, boshqasiga nisbatan oshib boradi. Ammo shoh qasri hammasidan ham balanddir» [3].

VII asr oxirida Arab istilosi bilan birga O'rta Osiyoga, jumladan Xorazmga ham islom dini kirib keldi va vaqt o'tishi bilan asosiy mavqeni egalladi. Oromiy yozuvi asosida shakllangan qadimgi Xorazm yozuvi muomaladan chiqib uning o'rnini arab yozuvi egallaydi. Arablar egallagan joylarida qadmigi yozma manbalarni yo'q qildilar. Shu bois So'g'd, Tohariston, Shosh va Parkanada, Xorazmda davlatchilik va xalqlar tarixi arxeologik qazishmalar qo'shni Eron, Vizantiya, Yunoniston va qisman arab, xitoy tarixiy manbalariga tayanib o'rganiladi [5].

Ammo ulkan Arab xalifaligi hududida yagona siyosiy, diniy va iqtisodiy va ijtimoiy makonni shakllanishi sharq rennesansi - uyg'onish davrini boshlab bergan. IX – XII asrlarda ro'y bergan iqtisodiy va ijtimoiy yuksalish Xorazmga ham o'z ta'sirini o'tkazib, hunarmandchilik, savdo – sotiq, ijtimoiy hayot rivojlandi. Xorazm markazi - Gurganj musulmon dunyosining yirik madaniy, ilm – fan markazlaridan biriga aylandi. X asrda Gurganjda 170 joyda katta va kichik bozorlar, 5 mingga yaqin masjid, 700 ga yaqin madrasa va mingga yaqin hammom ishlab turganligi haqida xabar beradi [5]. Agar har bir machitga o'rtacha 20 kishi namoz o'qishga boradi deb faraz qilsak ham namoz o'qish yoshidagi 100 ming erkak jinsi va 350-500 ming kishi atrofida shahar aholi bo'lgan deb taxmin qilsak bo'ladi.

XII asr oxiri va XIII asrlar 1-choragi Xorazmda iqtisodiy-ijtimoiy hayot yanada yuksalgan. Xorazm davlatining eng qudratli davri - Xorazmshohlar davrida poytaxt Gurganjda aholi 1 mln. kishidan ortgan degan ma'lumotlar mavjud. Ammo 1219 yilda Xorazm davlati mo'g'ullar tomonidan istilo qilinadi, so'ngra u qisqa muddatlik mustaqillikdan keyin Amir Temur davlati tarkibiga kiradi va faqat XVI asr

boshidagina mustaqilligini qayta qo'lg'a kiritadi. Ammo bu davrda Buyuk Ipak yo'lining Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan Xorazm hududidan o'tgan qismining oldingi ahamiyati yo'qotishi ushbu hududlarning jahon iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini pasaytirib yuborgan. Tipik feodal davlat bo'lgan Xorazm ijtimoiy taraqqiyotda orqada qolgan va XIX asr so'nggi choragida chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga sabab bo'lgan [2].

Ushbu davrda turli ijtimoiy-siyosiy va, qisman, tabiiy omillar ta'sirida Xorazm vohasida dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlari hajmi, irrigatsiya tizimlaridan foydalanish darajasi o'zgarib turgan. Buni Xorazm vohasining o'ng qirg'oq qismi Qoraqalpog'iston Ellikqala, Beruniy, To'rtko'l tumanlari, Turkmanistonning Dosho'g'iz viloyati hududida topilgan qadimiy irrigatsiya shahobchalari izidan ham bilsa bo'ladi. XVI asr oxirlaridan Xorazm poytaxti Vazir va Urganch shaharlariga suv olib borgan Daryoliqda asta-sekin suv kamayib atrof-tevarak cho'lu-biyobonga aylana boshlagan. Shu bois, XVII asrda ularning aholisi Abulg'uzi Bahodirxon tomonidan Amudaryoga yaqin hududiga ko'chirilib, hozirda Xorazm viloyati markazi bo'lgan Urganch shahriga asos solingan, davlat poytaxti Vazirdan Xiva shahriga ko'chirilgan [5].

Xiva xonligi bosib olinishi arafasida, rus sayyohlari ma'lumotlariga ko'ra, Xivada 21 mingdan sal oshiq, Xonqa, Hazorasp, Qo'ng'iro't, Urganch, Qo'hna Urganch, Sho'roxon va boshqa yirik shaharlarida 2-5 ming atrofida aholi yashagan [5].

1924 yilda O'rta Osiyoda yangi siyosiy o'zgarish milliy mansublik asosida davlatlar chegaralanishi o'tkazildi va yangi respublikalar tashkil etildi. XXSR, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Turkiston Xalq Sovet Respublikalari tugatilib O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqirg'irg'iz, Qirg'iziston Sovet Respublikalari va Tojikiston hamda Qoraqalpog'iston muxtor birliklari tashkil etildi.

Xorazm O'zbekiston tarkibiga kirgan 1926 yilda Butunittifoq aholi ro'yxati viloyatda 314 ming kishining qayd etgan. 1929 yil 2 fevralda qabul qilingan «O'zbekiston SSR ning shahar va shahar punktlari ro'yxatini tuzish to'g'risida»gi qarori bu boradagi birinchi huquqiy hujjat sanalalidi. Mazkur qaror asosida shaharlar qatoriga Xiva, Yangi Urganch aholi punktlari kiritilgan.

1961 yil iyulda maxsus farmon bilan respublika hududidagi aholi punktlarini shahar va shaharchalar qatoriga kiritish tartib-qoidalari qabul qilindi. Ushbu qaror va nizomlar asosida aholisi 2 mingdan ortadigan va aholisi 3/2 qismi ishchilar bo'lgan punktlarga shaharcha, aholisi 7 ming va undan oshadigan va aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi punktlariga shahar maqomi berish belgilab qo'yilgan [1].

1939 - 1989 yillar oralig'ida shaharlar soni Xorazmda 2,5 marotaba oshdi. Drujba (Pitnak) shahriga asos solindi, Shovot va Gurlan shaharchalariga shahar maqomi berildi. Biroq 1989-2009 yillarda Shovot va Gurlanning shahar maqomi bekor qilindi.

XX asr so‘nggi o‘n yilligi dastlabki yillarida viloyat shaharlari soni va tabiiy ravishda urbanizatsiya darajasida unchalik katta o‘zgarishlar ro‘y bergani yo‘q. 2005 yil 14 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma‘muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 120-sonli qarori asosida, 2009 yil 13 martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 68-son qaroriga binoan O‘zbekistonda 966 qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Natijada viloyatda urbanizatsiya darajasi birdan ko‘rtarilib 34,2 foizga yetdi. 2023 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, viloyatda 3 shahar va 56 shaharcha mavjud (1-jadval).

1 -jadval.

Xorazmda shahar manzilgohlari tarkibining o‘zgarishi

Mintaqalar	2008 yil			2009 yil			2022 yil	
	shahar-lar	shahar-chalar	urbanizatsiya darajasi, %	shahar-lar	shahar-chalar	urbanizatsiya darajasi, %	shahar-lar	shahar-chalar
Xorazm	3	7	21,8	3	58	34,2	3	56
O‘zbekiston R.	119	114	35,8	119	1080	51,7	120	1062

Jadval O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

2023-yilda Xiva shahriga viloyatga bo‘ysunuvchi shahar maqomi berildi. Viloyatdagi ayrim shaharchalarning (Xonqa) aholisi allaqachanoq 40 mingdan ortgan, shaharchalarning katta ko‘pchilik qismi shahar arxitekturasi va kommunikatsiyasiga ega emas. Tuman markazlarini hisobga olmaganda shaharchalarning aksari katta yoki o‘rtacha kattalikdagi sanoat korxoanalri mavjud emas. Ushbu va boshqa omillar hozirgi paytda ularga shahar maqomini berishga to‘sqinlik qiladi.

Ayni vaqtda, keyingi yillarda, qishloq joylarda ham shahar tipidagi kvartallar va binolar barpo etilmoqda. Qishloq joylarga shahar arxitekturasi kirib borishi bir tarafdin ijobiy holat bo‘lsa-da, ular ayrim hollarda tarqoq joylashgan hamda hudud iqtisodiy salohiyatini mujassamlashtiruvchi o‘sish qutblari bo‘lishi qiyin. Ularning ko‘pchiligi gazlashtirilganligi bilan aholini jalb etib, asosan “qishgi qarorgoh” vazifasini bajarmoqda. Ushbu hol viloyatda shaharsozlik masalalariga jiddiy e‘tibor berishni, xususan yangi manzilgohlarni barpo etganda aholini sotsial xizmat turlari va ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishini ham hisobga olish talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. - Т.: Абу Али ибн Сино, 2002. - 224 б.
2. Аскарлов А. Ўзбекистон халқлари тарихи. И жилд.-Т.: Фан, 1992. – 188 б.
3. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том 1. Памятники минувших поколений.-Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1957. – 485 с. / <https://www.twirpx.com/file/1966108/grant/>
4. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. М. Наука. 1988, 127 с. <https://www.twirpx.com/file/2838944/grant/>
5. Матниёзов М. Хоразм тарихи. И том -У.: Хоразм, 1997. – 410 б.
6. Толстов С.П., Жданко Т.А., Абрамзона С.М., Кислякова Н.А.. Народы Средней Азии И Казахстана. Т.1. Под редакцией М., 1962. с. 768 с. <https://www.twirpx.com/file/3522286/grant/>